

O'QUV DASTUR PASPORTI

UMO-46-sonli O'quv dastur uzluksiz tibbiy va farmatsevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning 14 avgust 2025 yildagi 3-sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2030 yilgacha

Ta'lim muassasasi nomi	SSV qoshidagi Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi		
Kafedra	1-Ultratovush diagnostikasi		
O'quv dastur nomi	«Klinik ultratovush diagnostikasi»		
O'qish turi	Umumiy malaka oshirish kursi		
O'quv dastur mualliflari	Normuradova N.M., Fazilov A.A., Rasulova M.M., Miryusupov M.M, Ikramova Z.T., Soipova G.G., Jurayev Z.A., Niyazov A.N.		
Kursning umumiy soati	144 kredit		
Kursda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar			
			
DSc, dotsent Normuradova N.M.	t.f.d, professor Fazilov A.A.	t.f.n., dotsent Rasulova M.M.	PhD, dotsent Ikramova Z.T.
Maqsad	Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida faoliyat yuritib kelayotgan ultratovush diagnostikasi mutaxassislarning dopplerografiya, elastografiya, hajmli exografiya kabi zamonaviy ultratovush texnologiyalarini amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini mustahkamlash, ultratovush diagnostikasi sohasidagi nazariy bilimlarni va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirishdan iborat		
Kursga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	Ultratovush diagnostika mutaxassislari, klinik radiologlar.		
Kurs vazifalari	-Tinglovchining B-rejim hamda dopplerografiya, elastografiya va hajmli exografiya kabi zamonaviy ultratovush usullarining imkoniyatlari, qo'llash		

	texnologiyalari, ustunliklari va kamchiliklari haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish; -Ultratovush diagnostikasining dopplerografiya, elastografiya va hajmli exografiya kabi zamonaviy texnologiyalarini qo‘llash borasida amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash; -LI-RADS, BI-RADS, TI-RADS, O-RADS protokollari bilan tanishtirish va ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qilish; - Shifokorlarni isbotlangan tibbiyot asoslariga o‘rgatish va standart protokollar asosida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish	
Kurs tarkibi	1Modul. Milliy istiqlool g‘oyasi. O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy gigiena va sog‘liqni saqlash tashkilotlari tuzilishining asoslari 2 Modul. Zamonaviy ultratovush uskunalarini boshqarish metodologiyasi 3 Modul. Ovqat hazm qilish tizimi a‘zolari kasalliklarini tashxislashda ultratovush diagnostikasi zamonaviy texnologiyalarining qo‘llanilishi 4 Modul. Siydik ajratish va tanosil tizimi a‘zolari kasalliklarini tashxislashda ultratovush diagnostikasi zamonaviy texnologiyalarining qo‘llanilishi 5 Modul. Yuza joylashgan a‘zolarning - qalqonsimon bezi, sut bezi, ayrsimon bezi, limfa tugunlari, hamda o‘pka va plevra kasalliklarini tashxislashda ultratovush diagnostikasi zamonaviy texnologiyalarining qo‘llanilishi 6 Modul. Chaqaloq bosh miyasi kasalliklarini tashxislashda ultratovush diagnostikasining zamonaviy texnologiyalarni qo‘llanilishi 7 Modul. Ginekologik kasalliklarini tashxislashda ultratovush diagnostikasi zamonaviy texnologiyalarining qo‘llanilishi 8 Modul. Akusherlik amaliyotida ultratovush diagnostikasi zamonaviy texnologiyalarining qo‘llanilishi	
O‘qish bazalari: 1.TXKMRRM qoshidagi Tibbiy o‘quv maslahat markazi	2. Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	3.MCHJ “Sihat oila” 



Simulyatsion asbob/uskunalar

